

**SURXON-SHEROBOD VOHASI QO'NG'IROTLARI AN'ANAVIY
DEHQONCHILIGIDAGI LOKAL KO'RINISHLAR**

Qarshiyev Islom Maxmarahim o'g'li,

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti v.b.,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

e-mail: qarshiyevislom96@gmail.com.

UDK: 39:314.114(091)(575.151)

<https://orcid.org/0009-0004-0796-1493>

Annotatsiya: Aholi jamiyat taraqqiyotida ishlab chiqaruvchi kuch va asosiy iste'molchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan insoniyat tarixi aholi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganishni taqozo etadi. Surxondaryo viloyati hududi tekisliklar, pasttekisliklar, daryo vodiylari, qir va adirlar, tog' yonbag'irlari hamda tog'liklardan tashkil topganligi aholi manzilgohlarining xilma-xil tarqalishiga, o'ziga xos ixtisoslashuvi va infratuzilmaning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: dehqonchilik, o'troq turmush tarzi, lalmi yer, baqlajon, karam, paxtachilik.

Surxon vohasi aholisining ajdodlari qadimdan boshlab, hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashib, o'ziga xos hayot tarzini boshidan kechirishgan. Chunki, etnoslarning xo'jalik faoliyatlarini yuritishlarida hududiy, tabiiy sharoit qay darajada muhim bo'lsa, o'sha davrda, mazkur hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ham shu qadar ahamiyatli bo'lgan.

Surxon-Sherobod vohasi dehqonchiligining rivojlanishi, bu yerning agrotexnik usullarini: melioratsiya, qumloq, loyqa bilan o'g'itlash, gil konstruksiyali tuproqlar, qirg'oq bo'yidagi chiqindilar, tuproqlarni sug'orish va sho'r yuvish usullari va hokazo[1].

Surxon vohasi o'zining tabiiy iqlim sharoiti hamda dehqonchilik qilish uchun qulayligi bilan ajralib turgan. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan bekliklar orasida Surxon vohasi hududida joylashgan Sherobod, Boysun hamda Denov bekliklari dehqonchilik sohasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. Bu davrda Rossiya imperiyasining hukumati O'rta Osiyo to'g'risida ilmiy asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida o'lkaga maxsus bilimlari kishilarni yuborgan. Dastlabki ma'lumotlarda bu hududlarga birinchi navbatda xom ashyo bazasi sifatida qarashlar aks etgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda birmuncha chuqur ilmiy izlanishlarga asoslangan fikr-mulohazalar bildiriladi. Ular aynan mana shu ma'lumotlarni o'zlaridan yuqori turuvchi tashkilot yoki shaxslarga hisobot tarzida topshirgan.

Surxon-Sherobod vohasida yashagan qo'ng'irotlarning vaqt o'tishi bilan o'troq turmush tarziga o'tishi jarayonida, ya'ni xo'jalik faoliyatida dehqonchilik yetakchi o'rinni egallay boshlagan. O'rganilayotgan hududda qo'ng'irotlarning chorvachilikdan dehqonchilikka o'tishi jarayoni o'ziga xos bo'lib, ularning xo'jalik mashg'ulotlari o'zgarishiga sabab bo'lgan[2]. Qo'ng'irotlar xo'jaligida dehqonchilikning muhim ahamiyat kasb etishiga, XX asrning 50-yillarida yangi yerlarning o'zlashtirilishi va paxtachilikka ixtisoslashtirilgan intensiv dehqonchilikning jiddiy sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida, yaylovlar uchun zarur bo'ladigan yerlarning kamayishi hamda an'anaviy chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholini majburiy tarzda yangi o'zlashtirilgan yerlarga ko'chirilishi sabab bo'lgan. Ayniqsa, XX asrning 60-yillarida yarim o'troq qo'ng'irotlarning yaylovda chorvachilik bilan shug'ullanishi chegaralab qo'yilgan, sug'orma dehqonchilik hamda uning paxtachilik tarmog'iga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, Qiziriq, Bandixon dashtlarining XX asr 50-60-yillaridan boshlab o'zlashtirilishi natijasida tashkil etilgan yangi aholi manzillariga qo'ng'irotlarning ko'chirilishi ham ularning xo'jalik mashg'ulotlari transformatsiyalashuviga

olib kelgan. Bu esa, ularning milliy identikligi, turmush tarzi va xo‘jalik an‘analarida o‘zgarishlariga sabab bo‘lgan.

XX asrning 50–60- yillaridan boshlab qo‘ng‘irotlar xo‘jaligida dehqonchilik asosiy xo‘jalik tarmog‘iga aylangan. Lekin, qo‘ng‘irotlar turmush tarzida dehqonchilik yetakchi mavqega ega bo‘lishi bilan birga ular xonaki chorvachilik bilan ham shug‘ullanganlar. Yarim o‘troq hayot kechirgan qo‘ng‘irotlar an‘anaviy lalmi dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Ma‘lumki, XVIII asrning boshlaridan to XIX asrning o‘rtalarigacha, chorvador qo‘ng‘irotlar yaylovlarga ko‘chib borganlarida qisman lalmi dehqonchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Dasht qishloqlari yarim o‘troq aholi o‘troqlashishi natijasida paydo bo‘lgan[3]. Bunday qishloqlarni Surxon-Sherobod vohasining tog‘li hamda dasht hududlarida kuzatish mumkin[4].

Qo‘ng‘irotlar bahorda “yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi” deb, keng lalmi maydonlarga tariq ekishgan[5]. Dehqonchilik uchun hech qanday sun‘iy sug‘orish tizimini yaratish shart bo‘lmay, ekin maydonlari faqat tabiiy havo yog‘inlari hisoblangan qor, yomg‘irlar bilan to‘yingan. Boshqoqli ekinlar yetishtirish bilan ko‘proq o‘troqlashayotgan, shu atrofda chorvasini boqib yurgan yarim o‘troq qo‘ng‘irotlar mashg‘ul bo‘lishgan. Ular tomonidan bu joylarda, asosan, tariq, arpa, bug‘doy singari boshqoqli ekinlar ekilgan.

Surxon-Sherobod vohasi qo‘ng‘irotlarining o‘troqlashuv jarayonida dehqonchilik bilan shug‘ullanishga o‘tganlar. Bu holat, albatta, mintaqaning tekislik va adirlik qismida jadal kechgan. Biroq, lalmi yerlarda dehqonchilik qilish bilangina, yarim ko‘chmanchi qo‘ng‘irotlar o‘zlarining don mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishlari mushkul edi. Boz ustiga yuqorida qayd etilganidek, lalmi yerlardagi dehqonchilik havo yog‘ingarchiliklariga bog‘liq bo‘lib, har doim ham yetarli darajada hosil yig‘ib olish imkonini bermas edi. Shu sababli, qo‘ng‘irotlar g‘allaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida ekin maydonlarini imkon qadar sug‘orishga, aniqrog‘i sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanishga harakat qilganlar. Buning uchun ular mintaqadagi barcha suv manbalaridan foydalanish harakatida bo‘lishgan.

Surxon-Sherobod vohasida asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan qo‘ng‘irotlar o‘z tomorqalarida arpa va boshqa ekinlarni quduq suvi bilan sug‘orishgan. Quduqdan oddiy moslama – chig‘ir, qovg‘a (mesh) orqali arqon (arg‘amchi) bilan ko‘pincha hayvon (tuya yoki eshak) kuchi yordamida suv tortib chiqarib olingan. Suv tanqisligi tufayli tanlangan yerdan 1,5 arshin kenglikda quduq qazib, uning atrofiga pishiq g‘isht terib chiqilgan. Quduq tepasiga maxsus moslama chig‘ir o‘rnatilib, echki terisidan paqir o‘rnida qovg‘a, meshlar tikib, tuya, eshak yordamida quduqlardan suv olingan, shundan keyin dehqon o‘z ekinini sug‘organ[6]. Qo‘ng‘irotlar obikor yerlarga «oq bug‘doy», lalmi yerlarga «qizil bug‘doy», «qora qiltiq bug‘doy» ekishgan[7].

XX asr o‘rtalarida asosiy maydonlarga bug‘doy, arpa bilan birga zig‘ir, kunjut, makka kabi donli ekinlar ham ekilgan. Albatta, azaliy chorvador aholi dehqonchilik bilan shug‘ullanishga o‘tar ekan, avvalo o‘troq dehqon aholi tomonidan ishlatilib kelinayotgan mehnat qurollaridan foydalanishni o‘zlashtirib borishgan. XX asr boshlariga kelib dehqonlar asrlar davomida takomillashib kelayotgan omoch, tish, bo‘yinturiq, mola kabi mehnat qurollari yordamida yerga ishlov berganlar. Hosilni yig‘ib olish uchun esa o‘roq, ayri, panshaxa, yog‘och kuraklardan foydalanganlar.

Qo‘ng‘irot dehqonlari qo‘shni chig‘atoy o‘zbeklar va tojiklarga nisbatan boshqa dehqonchilik qurollaridan keng foydalanishni ham o‘zlashtirishgan. Umuman olganda, mintaqada yashagan barcha yarim ko‘chmanchi qo‘ng‘irotlarning sug‘orib dehqonchilik qiladigan yerlari XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib sezilarli darajada kengaygan bo‘lishiga qaramay, xo‘jalikda dehqonchilik yetakchi mavqega ega bo‘lmaganligi bois dehqonchilikning moddiy-texnika ta‘minoti birmuncha oddiy bo‘lgan.

Yangi yerlarni o'zlashtirishda, o'troqlashayotgan boshqa chorvador urug'lar kabi qo'ng'irotlarning ham o'rni katta bo'lgan. XX asrning birinchi yarmida Boysun tumanlari hududlarida daryolarning qirg'oqlari va buloqlar atrofiga joylashgan hamda ushbu suv manbalaridan o'zlarining uncha katta bo'lmagan ekin maydonlarini sug'orishda foydalanishgan. Ular shu joylarda mavsumiy tarzda o'troqlashib, o'zlarining xo'jaliklarini tashkillashtirgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, XX asr 60-yillaridan boshlab Qiziriq va Bandixon dashtlarining o'zlashtirilishi natijasida tog'larda yashagan qo'ng'irotlar majburiy cho'lga olib kelingan. Chunonchi, 1957 yilda 165 ming kubometrli Uchqizil suv ombori qurilgan. O'rta Osiyodagi eng yirik suv omborlaridan biri 800 mln. kubometrli Janubiy Surxon suv ombori ishga tushirildi. Suv omboridan Sherobod cho'lga qadar tekislik va tog'lar oralab sekundiga 110 kubometr suv o'tadigan magistral kanalning o'tkazilishi natijasida Sherobod cho'li o'rnida yangi yerlarning o'zlashtirilishi va qo'rg'onlar (posyolka) ning qurilishiga olib keldi. 34,4 ming gektar o'zlashtirilib, o'sha davr taomiliga ko'ra, "Yangiobod", "Komsomolobod", "Sovetobod", A. Nabiyeu, Oxunboboyev nomidagi davlat xo'jaliklari tashkil qilindi. Xo'jalik ishchilari uchun qo'rg'onlar qad ko'tardi, 147 ming kvadrat metr turar-joy binolari foydalanishga topshirildi. Surxon-Sherobod cho'lida 1 ta bog'dorchilik va 12 ta paxtachilik xo'jaliklari tashkil etildi.

1961 yil 9 fevralda O'zbekiston hukumatining "Surxon suv ombori bazasida Surxondaryo havzasidagi yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish bo'yicha tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga asosan, 1962 yilda "Komsomolobod" xo'jaligi tashkil etildi. Xo'jalikning umumiy yer maydoni 10 ming 893 gektardan iborat bo'lib, unda ishga yaroqli 1793 nafar kishi bor edi[8].

Yuqorida ta'kidlanganidek, aynan cho'lga kelgan qo'ng'irotlar an'anaviy xo'jalik mashg'uloti bo'lgan chorvachilik o'rniga dehqonchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan. Chunonchi, Sherobod tumani Novbog' qishlog'i aholisi qo'ng'irotlarning qonjig'ali shohobchasidan bo'lib, ajdodlari Dehqonobod tumani hududida yashagan. Ular 1939 yil bu hududga ko'chirilgan va har bir oilaga 32 sotixdan tomorqa yeri ajratilgan. 1974 yil Surxon suv omboridan nasoslar orqali Qiziriq va Sherobod tumanlari hududlariga suv olib kelinishi natijasida ko'plab cho'l hududlari o'zlashtirilgan va yangi ochilgan yerlarga moslashgan zamonaviy uylar qurilib, tog'da yashovchi qo'ng'irotlar ko'chirilgan. Chunonchi, mana shunday tadbirlar natijasida Sherobod tumanidagi Oqqo'rg'on qishlog'ida 1975 yilda dastlab jamoa xo'jaligi tashkil qilinib, qo'ng'irotlarning tortuvli urug'i vakillari Dehqonobod hududidan ko'chirilgan va ularga 15 sotixli tomorqadan iborat kooperativ uylar berilgan[9]. Qo'ng'irotlar necha asrlar davomida chorvachilik bilan shug'ullanganliklari bois ularning xo'jalik hayot tarzi, taomlari tarkibida dehqonchilik mahsulotlari kam bo'lgan.

XX asrning 50-yillaridan keyin qo'ng'irotlar dehqonchiligida ham muhim transformatsiyon jarayonlarni kuzatish mumkin. Bu davrda qo'ng'irotlar uchun notanish bo'lgan pomidor, karam, baqlajon, bulg'or qalampiri va boshqa bir qator yangi ekin turlari paydo bo'la boshlaydi[10]. Ushbu ekin turlarini dastlab Rossiyadan ko'chirib keltirilgan rus dehqonlari yetishtirishgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'sha paytlarda mahalliy aholi bu ekin turini deyarli bilmagan. Ayniqsa, pomidor ancha vaqtgacha mahalliy xalq tomonidan o'zlashtirilmagan. Axborotchilarning ta'kidlashicha, qo'ng'irotlar XX asrning 50-yillarigacha pomidorni "rusni (o'risning) mevasi" deb yetishtirmagan va iste'mol qilmagan. Sherobod tumani Chuqurko'l qishlog'ida XX asrning 50 – yillari oxirida bir kekxa bobo kelib jamoa xo'jaligiga pomidor ekan. Odamlar pomidorni "o'risning mevasi" deb sotib olmagani. Keyinchalik 60-yillardan boshlab ushbu ekin turining Surxondaryo hududida ham ko'plab navlari yetishtirilgan.

XX asrning 50 – 60- yillaridan boshlab mintaqada baqlajon, karam kabi yangi poliz ekinlari ommalasha borgan. Sherobod tumani Novbog' qishlog'ida yashovchi qo'ng'irotlar XX

asrning 70- yillarigacha qalampir, bulg'or qalampirini yerni harom qiladi deb ekishmagan[11], faqatgina 80- yillardan eka boshlashgan. Shuningdek, aynan bu davrdan boshlab ushbu hududga koreyslar tomonidan piyoz ekilganidan so'ng ular ham piyoz yetishtira boshlaganlar. Sobiq sovetlar davrida qo'ng'irotlar dehqonchilik bilan izchil shug'ullanmaganlar.

XX asrning 80- yillariga qadar qo'ng'irotlarda bog'dorchilik ham keng rivojlanmagan. Hatto, hozirda ham qo'ng'irotlar yashayotgan ko'plab qishloqlarda juda kam mevali daraxtlar uchraydi. Faqat yerning sho'rini oladi deb, jiyda ekilgan. Bog'dorchilik mahsulotlarining asosiy qismi tog'li hududlar hisoblangan Poshxurt va Xatak qishloqlaridan olib kelingan. Aynan bu qishloqlarda yashovchi bog'bonlar uzum, olma, yong'oqlarni Oqqo'rg'on hududiga olib kelib, bug'doyga almashtirib ketgan. 80- yillardan boshlab uzum, olma, yong'oq kabi mevalar ko'plab ekilgan[12].

Xulosa qilbi ta'kidlash keraki, qo'ng'irotlar an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlari vaqt o'tishi bilan tashqi va ichki omillar ta'sirida transformatsiyalashgan va chorvachilikdan dehqonchilikka o'tgan. Aynan dehqonchilikda lokal xususiyatlar yillar davomida tajriba va fenologik kuzatishlar asosida qo'ng'irotlarda ham dehqonchilik bilan bog'liq o'ziga xos agromadaniyat shakllanganligi aniqlandi. Aynan mazkur madaniyat asosida dehqonlarning tabiiy resurslar, xususan, yer va suvdan unumli foydalanish, sermashaqqat mehnat evaziga hosil yetishtirish borasidagi etnomilliy an'analari mujassamlashgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Очерки по истории хозяйства народов Средней Азии и Казахстана. - Л.: "Наука", 1973. - С. 9-10.
2. Qobulov E. Surxon vohasi xo'jaligi. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 115 – 175.
3. Шаниязов К. III. К этнической истории узбекского народа. – Тошкент, 1974. – С. 167.
4. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Sho'rob qishlog'i. 2022 yil.
5. Dala yozuvlari. Surxon viloyati Sherobod tumani Xomkon qishlog'i. 2021 yil.
6. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent, 1994. – B. 95.
7. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani To'da qishlog'i. 2020 yil.
8. Tursunov S., Qobilov E., Murtozoev B., Pardaev T. Surxondaryo tarixi. – T.: Sharq, 2004. – B. 399-402.
9. Dala yozuvi. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Oqqo'rg'on qishlog'i. 2021 yil.
10. Балашев Н. Н. Малораспространенные овощные культуры. – Т., 1957. – С. 17 – 22.
11. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Novbog' qishlog'i. 2022 yil.
12. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Oqqo'rg'on qishlog'i. 2019 yil.